

NAFAS TUTIB TURISH KO`RSATKICHLARI TAHLILI

Xodjayeva Aziza Ne`matjon qizi,
Abduxalilova O`g`iloy Muhammadodil qizi,
Xolmirzayeva Madina Akramjanovna
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida Andijon viloyati Asaka tumani 53-umumta’lim maktabi va Andijon tumani 35-umumta’lim maktabi 5-6-sinf o`quvchilarining chuqur nafas olganda va chuqur nafas chiqarganda nafas tutib turish ko`rsatkichlari o`lchangan va tahlil qilingan. Tadqiqot davomida olingan natijalar taqqoslangan.

Abstract: In this study, the indicators of breath retention after taking a deep breath and exhaling deeply were measured and analyzed in the 5th and 6th grade students of the 53rd general education school of the Asaka district and the 35th general school of the Andijan district. . The results obtained during the study were compared.

Аннотация: В данном исследовании измерялись и анализировались показатели задержки дыхания после глубокого вдоха и глубокого выдоха у учащихся 5 и 6 классов 53-й общеобразовательной школы Асакинского района и 35-й общеобразовательной школы Андижанского района. Результаты, полученные в ходе исследования, сравнивались.

Kalit so`zlar: Nafas olish, Shtange tajribasi, Genchi tajribasi,

Key words: Breathing, Barbell experience, Genchi experience,

Ключевые слова: Дыхание, Опыт со штангой, Опыт Генчи,

Organizm funksional tarmoqlar holati ya’ni, nafas olish, arterial puls, moddalar almashinuvi, markaziy nerv tizimi nafas olishni tekshirish yordamida amalga oshiriladi [1]. Bunda Shtange va Genchi tajtibalaridan foydalaniladi. Bu tajribalar organizmning kislorod yetishmovchiligiga moslashish haqida tasavvur beradi.

Shtange tajribasi. Nafas olish vaqtida nafas tutib turish. Tekshiriluvchi 5-7 daqiqa dam olgandan so`ng o`tirgan holda chuqur nafas chiqaradi va nafas oladi, so`ngra yana nafas olib og`iz va burun berkitiladi. Nafasni ushlab turish vaqti belgilanadi. Nafasni ushlab turish vaqti ko`pincha insonning chidamliligiga bog`liq. Sog`lom bolalar va o`smirlarda nafasni ushlab turish vaqti 16-55 soniya atrofida bo`ladi. Katta yoshli shug`ullanmagan odamlarda 40-50 soniya, shug`ullangan sportchilarda 60 soniyadan 2-2,5 daqiqagacha. Shug`ullanganlik ortib borishi bilan bu vaqt o`sib boradi, charchaganda esa pasayadi. Qon aylanish, nafas olish organlari kasalliklarida, kamqonlikda nafasni tutib turish vaqti kamayadi.

Genchi tajribasi. Nafasni chiqarganda nafas tutib turish. Tekshiriluvchi to`liq nafas oladi va chiqaradi va keyin boshqa nafas olmasdan nafasni ushlab turadi. Sog`lom shug`ullanmagan insonlar nafasni 20-30 soniya davomida, sog`lom shug`ullangan insonlar 30-90 soniya davomida ushlab tura oladi.

Nafas olish va chiqarishdagi tutib turish vaqtining davomiyligi odatda yurak-qon tomir va nafas tizimlari kasalliklarida kamayadi. Bu ko`pkina omillarga bog`liq: nafas markazining qo`zg`aluvchanligi, to`qimalar almashinuvi intensivligi va tekshiriluvchining chidami.

Ganche va Shtange sinovlarini dinamikada kuzatsa, ularning ahamiyati yanada oshadi.

Tadqiqotlarda umumiy qabul qilingan antropometrik tadqiqot uslublaridan foydalanildi [4].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Kuzatuvlar 2023–2024 yillar davomida Andijon viloyati 53 va 35- umumta`lim maktablarining o`quvchilarida amalga oshirildi. Kuzatuv ishlari o`quvchilarning o`z hohishi va roziliklariga ko`ra olib borildi.

Olingan natijalar tahliliga ko`ra 5-sinflarda chuqur nafas olgandan keyin nafas tutib turishning eng yuqori ko`rsatkichi 60 sekund, eng quyi ko`rsatkichi 13 sekund. O`rtacha ko`rsatkich 30 sekund. O`rtacha ko`rsatkichlar o`zaro taqqoslanganda o`rtadagi farq 0.7 ni tashkil qildi.

Chuqur nafas chiqargandan so`ng nafas tutib turishning eng yuqori ko`rsatkichi 34 sekund, eng quyi ko`rsatkichi 9 sekund. O`rtacha ko`rsatkich 17 sekund.

6-sinflarda chuqur nafas olgandan keyin nafas tutib turishning eng yuqori ko`rsatkichi 86 sekund, eng quyi ko`rsatkichi 21 sekund. O`rtacha ko`rsatkich 53-maktab o`quvchilari uchun 49 sekund, 35-maktab o`quvchilari uchun 39sekund. O`rtacha ko`rsatkichlar o`zaro taqqoslanganda olinga natija 3.1 ga teng bo`ldi.

Chuqur nafas chiqargandan so`ng nafas tutib turishning eng yuqori ko`rsatkichi 90 sekund, eng quyi ko`rsatkichi 10 sekund. O`rtacha ko`rsatkich 53-maktab uchun 34 sekund, 35-maktab uchun 23 sekund. O`rtacha ko`rsatkichlar o`zaro taqqoslanganda o`rtadagi farq 6.2 ni tashkil qildi.

Olingan natijalar taxlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, nafas olishni ushlab turish organizm kislorodga to`yinmaganda qarshilik qobiliyatiga va anaerob maxsuldorlik qay darajada ekaniga bog`liq bo`lib, nafas olishni uzoq ushlab turish irodani shakllantirishga ham yordam beradi. Sport bilan muntazam shug`ullanuvchilar, ayniqsa suzish bilan shug,ullanuvchilarda nafas ushlab turish yuqori ko`rsatkichga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.N.Normurodov, Jismoniy tarbiya, “Tafakkur bo`stoni”, Toshkent-2011, 118-b
2. E. Nuritdinov. Odam fiziologiyasi. T., Aloqachi. 2005.
3. S.X.Aripova. Yosh fiziologiyasi va gigienasi. 2013.
4. Мануйленко Ю.И., Грехова Ю.А. Стандарты физического развития школьников как основные критерии оценки их здоровья. Вестник КРСУ. – 2015. – Т.15. – №4. – С.76–79.